YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 24-avgust, № 33 (8051)

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



Islohot odimlari

BEKOBOD TARAQQIYOTINING YANGI SAHIFALARI

Bugun yurtimizning barcha go‘shalarida bayram shukuhi, o‘zgacha ko‘tarinkilik va shodiyona nafasi kezib yuribdi. Zero, xalqimiz jonajon Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini katta quvonch va faxr-iftixor bilan kutib olmoqda. Bu qutlug‘ sana har bir yurtdoshimiz qalbida o‘ziga xos hayajon, shukronalik va Vatanga daxldorlik tuyg‘ularini uyg‘otmoqda.

Men uchun esa bu yilgi bayramning quvonchi yanada o‘zgacha — ko‘nglimda ikki karra shodlik, ikki karra hayajon. Chunki bu yil nafaqat ona Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini, balki men tug‘ilib-o‘sgan, bolaligim va yoshlik yillarim, umrimning eng unutilmas lahzalari kechgan aziz maskanim — Bekobod tumanining 100 yillik yubileyini ham nishonlayapmiz. Asrga teng bu tarix zamirida ajdodlar taqdiri, ne-ne sinov va mashaqqatlar, bunyodkorlik va fidoyilik, quvonchli kunlar-u unutilmas voqealar mujassam. Bugun esa tuman o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi.

ASOSIY MARRA — KAMBAG‘ALLIKKA BARHAM BERISH

So‘nggi o‘n yillikda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar Bekobod hayotida ham o‘zining amaliy ifodasini topdi. Ayniqsa, oxirgi bir yarim yilda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligida samaradorlikni ta’minlash borasida izchil ishlar amalga oshirildi. Hudud chin ma’noda ishlab chiqarish, qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan tumanni, avvalo, ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan edi. Xalqchil qarorlar ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tgan yili Xalq deputatlari tuman Kengashi va barcha faollarga tuman hokimi nomidan murojaat yo‘llanib, unda Bekobod tumanida barcha jabhadagi ishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun “Dolzarb 14 oylik” safarbarlik e’lon qilindi.

Taqqoslash uchun aytish kerak, o‘tgan yil boshida tumanda ishsizlik darajasi 5,9 foizni, kambag‘allik esa 9,8 foizni tashkil etgan. Barcha resurs va imkoniyatlarni ishga solish natijasida 2025-yil yakuni bilan tumanda ishsizlik darajasi 4,4 foizga tushirildi. Kambag‘allik darajasi esa bir yil oldingi salkam 10 foizdan 3,8 foizga tushdi.

Bunday ijobiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish uchun joriy yilda jami resurslar hisobidan qariyb 34 mingta ish o‘rni yaratilib, 1700 ta oila kambag‘allikdan chiqarilishi uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Ya’ni Prezidentimizning tumanga ko‘rsatayotgan yuksak ishonch va mehr-e’tiborlariga munosib javob sifatida shu yil yakunigacha tumanda ishsizlik va kambag‘allikka butunlay barham berish asosiy marra sifatida belgilanib, barcha amaliy sa’y-harakatlar olib borilmoqda.

Aytish joizki, hududda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida o‘tgan yili umumiy qiymati 670 milliard so‘mlik 2350 ta o‘rta va mikroloyiha ishga tushirilib, 2800 dan ziyod doimiy ish o‘rni yaratildi. Bu yo‘nalishda ishlarni izchil davom ettirib, joriy yil yakunigacha jami qiymati 850 milliard so‘mlik 3500 ta loyiha hayotga tatbiq etilib, 4,5 mingga yaqin yangi ish o‘rni ochiladi.

(Davomi keyingi sahifada...)

(...boshlanishi oldingi sahifada)

ASRLARGA TATIGULIK BUNYODKORLIKLAR

Bugun Bekobod tumani ulkan bunyodkorlik maydoniga aylandi, bu faqat markazda emas, hududning barcha mahallalarida, chekka ko‘cha-yu guzarlarida ham o‘z aksini topmoqda. Birgina 2025-yilning o‘zida tumanda budjetdan jami 370 milliard so‘mlik qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, maktab va bog‘chalar, sog‘liqni saqlash va sport muassasalari hamda mahalla idoralari, jami 34 ta ijtimoiy obyekt qurildi va ta’mirlandi.

Ezgu ishlar yana yaxshiliklarni boshlab kelmoqda. Joriy yilda tumanda ijtimoiy va infrastruktura obyektlarini qurish va xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun yana jami 450 milliard so‘mdan ortiq mablag‘-lar yo‘naltirildi.

Ushbu mablag‘lar evaziga tuman markaziy tibbiyot birlashmasi eng ilg‘or va zamonaviy andozalar asosida modernizatsiya qilinmoqda, zamonaviy tibbiy xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida noyob uskunalar bilan jihozlanadigan qo‘shimcha yangi bi-no qurilmoqda.

Tumanda mutlaqo yangi va yirik loyihalar — 104 gektar hududda 25 ming aholiga mo‘ljallangan 280 ta ko‘p qavatli uydan iborat “Yangi O‘zbekiston” massivi, ahamiyati jihatidan asrlarga tatigulik qiymati 265 million dollar bo‘lgan “Bekobod — Bo‘ka — Piskent — Nurafshon — Toshkent” tezyurar temir yo‘li qurilishi yuqori sur’atlarda davom etayotganini alohida quvonch bilan aytib o‘tish joiz. Shu paytgacha tumanda bironta ham dehqon bozori bo‘lmagan. Dehqonlar o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarni sotish uchun olis joylardagi bozorlarga qiynalib borishga, sharoiti yo‘q joylarda savdo qilishga majbur edi. Shu bois, ayni paytda “Yangi Bekobod ulgurji dehqon bozori” qurilmoqda.

Bugungi yangilanishlar jarayonida mahalliy Kengashlarning xalq vakillik organi sifatidagi o‘rni va mas’uliyati ham tobora ortib bormoqda. Buni, avvalo, Kengashlar faoliyatida so‘nggi yillarda yuz bergan o‘zgarishlar, deputatlarning tashabbuskorligi va aholi muammolarini hal etishdagi ta’sirchanligi misolida ko‘rish mumkin.

KENGASHLAR FAOLIYATIGA YANGICHA YONDASHUV

Taxminan o‘n yil avval mahalliy Kengashlar faoliyatini tashkil etish, sessiyalarni tayyorlash va o‘tkazish, kun tartibini shakllantirish, masalalarni sessiya muhokamasiga kiritish hamda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarining asosiy qismi hokimliklarning tashkiliy-nazorat guruhlari tomonidan amalga oshirilar edi. Kengash apparati va deputatlarning mustaqil faoliyati hali yetarli darajada shakllanmagani bois, Kengash ko‘p jihatdan hokimlik tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritardi.

Bu esa Kengashlarning xalq vakillik organi sifatidagi rolini to‘liq namoyon etishiga, deputatlarning siyosiy-huquqiy mas’uliyatini oshirishga hamda hududdagi muammolarni hal etishda Kengashning ta’sirchanligini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda esa bu borada mutlaqo yangi yondashuv shakllandi. 2021-yildan mahalliy Kengashlarda kotibiyatlarning tashkil etilishi Kengashlar ishini mustaqil va tizimli yo‘lga qo‘yishda muhim qadam bo‘ldi. Deputatlarning faolligi oshib, aholi bilan ishlash, saylovchilar mu-rojaatlarini o‘rganish, hu-duddagi muammolarni Kengash muhokamasiga olib chiqish va ularning yechimi yuzasidan ama-liy takliflar kiritish imkoniyatlari kengaydi.







2026-yil 1-yanvardan mahalliy Kengash rai-si va ijro hokimiyati rahbari vakolatlarining ajratilishi esa mahalliy boshqaruv tizimida yan-gi sifat bosqichini boshlab berdi. Kengash va hokimlik vakolatlarining aniq taqsimlanishi har bir tomonning vazifasi, mas’uliyati va javobgarligini yanada oydinlashtirdi. Bu, o‘z navbatida, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ochiqlikni ta’minlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va xalq manfaatlarini qarorlar qabul qilish jarayonida yanada to‘liq ifoda etish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Kengash bugun aholi manfaatlarini ifoda etuvchi vakillik organi sifatida jamoatchilik fikrini eshitadi, hududdagi muammolarni o‘rganadi, ijro organlari faoliyati ustidan ta’sirchan nazoratni amalga oshiradi va zarur takliflarni ilgari suradi. Hokimlik esa mazkur taklif va murojaatlarni amaliy chora-tadbirlar orqali hayotga tatbiq etadi. Shu tariqa, “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili amaliyotda o‘z ifodasi-ni topmoqda.

Bekobod tumanida ham mazkur yangilanishlarning amaliy natijalarini ko‘rish mumkin. Xususan, Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputatlari tomonidan hududdagi dolzarb muammolarni “2026-yilda tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish” dasturiga kiritish maqsadida tuman hokimi nomiga 17 ta taklif kiritildi. Ularning barchasi inobatga olinib, dasturda qayd qilindi. Natijada hududlarda aholini qiynab kelayotgan 17 ta muammoni hal etish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi va bugungi kunda ularning ijrosi ta’minlanmoqda. Eng muhimi, bunday natija aholining davlat organlariga ishonchini mustahkamlash bilan birga, deputatning saylovchilar oldidagi mas’uliyati va obro‘sini ham oshiradi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senati Kengashining 2025-yil 14-yanvardagi qarori asosida deputatlarning “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda ishlash mexanizmi joriy etildi. Bu tizim hududlardagi muammolarni quyi bo‘g‘inning o‘zida aniqlash, ularni o‘rganish va mas’ul tashkilotlar oldiga aniq vazifalar qo‘yish imkonini bermoqda.

(Davomi keyingi sahifada...)





MAS’ULIYAT VA IMKONIYAT

Joriy yil boshidan buyon deputatlar tomonidan aholi muammolarini o‘rganish natijasida kommunal soha va infratuzilmaga oid 34 ta, ijtimoiy soha obyektlariga oid 11 ta, yo‘l harakati xavfsizligiga oid 11 ta hamda qishloq xo‘jaligi sohasiga oid 4 ta masala deputat so‘rovlari orqali tegishli mas’ul tashkilotlar rahbarlariga yuborildi. Mazkur so‘rovlarning 51 foizi bugungi kunga qadar ijobiy hal etildi. Qolgan so‘rovlarning ijrosi ham deputatlar va jamoatchilik nazoratida turibdi.

Bu raqamlar ortida esa oddiy statistika emas, balki odamlarning kundalik hayotiga daxldor aniq masalalar va ularning yechimi mujassam. Masalan, deputat Abduvahob Xolmirzayev tomonidan Markaziy shifoxonaning bolalar bo‘limidagi isitish tizimini qayta ta’mirlash yuzasidan tuman hokimiga yuborilgan deputat so‘rovi ijobiy hal qilinib, isitish tizimi qayta yo‘lga qo‘yildi.

Deputat Iroda Qodirova tomonidan O‘zbekiston mahallasida mahalla fuqarolar yig‘ini uchun yangi bino qurib berish yuzasidan yuborilgan deputat so‘rovi ham ijobiy qanoatlantirildi. Natijada zamonaviy mahalla binosi qurilib, foydalanishga topshirildi.

Deputat Jahongir Shahmayev tomonidan Qolg‘onsir mahallasi aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasida Toshkent viloyati “Suv ta’minoti” AJning Bekobod tumani filialiga yuborilgan deputat so‘rovi asosida ham amaliy ishlar boshlandi. Dastur doirasida 16,5 kilometr ichimlik suvi tarmog‘ini tortish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugun Kengash faoliyatiga baho berar ekanmiz, eng muhim o‘zgarishni deputatning maqomi va mas’uliyatida ko‘ramiz. Ilgari deputat ko‘proq sessiya ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, bugun u aholi bilan bevosita ishlaydigan, muammoni joyiga chiqib o‘rganadigan, uni Kengash muhokamasiga olib chiqadigan va yechimigacha nazorat qiladigan xalq vakiliga aylanib bormoqda.

Shu ma’noda, Kengashning bugungi faoliyatini kechagi holat bilan taqqoslasak, eng katta natija — vakillik organining mustaqilligi, deputatlarning tashabbuskorligi va aholi oldidagi mas’uliyati tobora ortib borayotganidadir. Bu esa, o‘z navbatida, “Kengash — deputat — aholi” o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlab, xalq manfaatlarini himoya qilishning yanada ta’sirchan mexanizmlarini shakllantirmoqda.

Bekobod tumanining bir asrlik taraqqiyot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, kechagi kundan bugungacha bo‘lgan o‘zgarishlar zamirida, avvalo, inson mehnati, el-yurtga sadoqat va yangilanishga intilish mujassam ekanini ko‘ramiz. Bir asr davomida tuman o‘zining murakkab va sinovli davrlarini bosib o‘tib, bugun iqtisodiy salohiyati, zamonaviy infratuzilmasi, ta’lim va tibbiyot tizimi, tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligidagi imkoniyatlari tobora kengayib borayotgan hududga aylanmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillardagi o‘zgarishlar Bekobodning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Yangi yo‘llar va ko‘priklar, zamonaviy ijtimoiy obyektlar, sanoat va investitsiya loyihalari, yangi ish o‘rinlari, ta’lim va tibbiyotdagi yangilanishlar — bularning barchasi bir maqsadga, ya’ni inson uchun munosib hayot sharoitini yaratishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda mahalliy Kengashlarning ham o‘rni va mas’uliyati tobora ortib borayotir. Zero, Kengashning kuch-qudrati uning qabul qilgan qarorlari soni bilan emas, balki ana shu qarorlar orqali qancha insonning muammosi hal etilgani, qancha oilaning hayoti yaxshilangani bilan o‘lchanadi.

Aniqki, Bekobod tumanining keyingi taraqqiyot bosqichida ham asosiy mezon o‘zgarmaydi: inson qadri, xalq manfaati va hudud farovonligi. Shonli tarixdan kuch olib, bugungi imkoniyatlarga tayanib, ertangi kunga katta maqsadlar bilan qadam qo‘yayotgan Bekobod oldida yanada ulkan vazifalar turibdi. Ularni amalga oshirishda Kengash, hokimlik, deputatlar, mahalla va eng muhimi, faol va tashabbuskor xalqning hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zero, kecha — bizga tarix va saboq, bugun — mas’uliyat va imkoniyat, kelajak esa biz barpo etadigan obod va farovon Bekoboddir. Tarixning yangi sahifalari ham ana shu ezgu maqsadlar, bunyodkorlik va inson qadri ulug‘langan ishlar bilan bezalaversin.

Yoqutxon MO‘MINOVA,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi raisi

Maqola “Xalq so‘zi” gazetasining 2026-yil 21-avgustdagi 170-sonidan olindi.

Ko‘ngil mulki



VATANNI SEVMOQ KERAK!

Kimdir so‘rar: “Vatanni, ayt, qancha sevmoq kerak?
Beshikdan qabr sari borguncha sevmoq kerak,
Vatansizda iymon yo‘q, deya ketmish bobolar,
Tilga kirib, to tildan qolguncha sevmoq kerak!

Dunyo asli besh kundir, bugun borsan, erta yo‘q,
Har holating o‘tkinchi, goho ochsan, goho to‘q,
Lekin har on dilingda yonib turar bitta cho‘g‘,
Hayot shaming yongandan so‘nguncha sevmoq kerak!

Qurt jonidan kechmasa, ipakka do‘narmidi?
Urug‘ o‘zdan kechmasa, chechakka do‘narmidi?
Hazrat Navoiy so‘zi yurakka do‘narmidi?
Misli kurtak qatida — gulg‘uncha sevmoq kerak!

Tohir Zuhro ishqida daryolarda oqqandek,
Farhod Shirin ko‘yida boshin toshga chaqqandek,
Qays Layli deb tentirab, sahroda uloqqandek,
Yori deb jondan kechgan Majnuncha sevmoq kerak!

Vatan nedir? Volidang rayhon ekkan tuproq bu,
Vatan — otang sajdaga boshi tekkan tuproq bu,
Shahid bobong bag‘riga qonin to‘kkan tuproq bu,
Yetti pushting dunyoda turguncha sevmoq kerak!

Do‘stlar bilan kengashib, raqib bilan tergashib,
Ajdodlar tafakkuri narvoniga mingashib,
Haq yo‘l tomon boshlovchi Sarboningga ergashib,
Shu elda tug‘ilding to o‘lguncha sevmoq kerak!

Bu o‘lkaning o‘tmishin kuyladi ko‘p g‘amgin nay,
Vatan chorlasa, otlan, xizmatiga turgin shay,
Bedor bo‘lsin xayoling kechami, kunduz demay,
Tafakkuring, fitrating yonguncha sevmoq kerak!

Sevmoq ilmin qalbingga baxsh etganda bo‘zlaring,
Baralla yangragaydir yurt ishqida so‘zlaring,
Yurgunicha oyog‘ing, ko‘rgunicha ko‘zlaring,
Ko‘ksingdagi yuraging urguncha sevmoq kerak!

Necha yillarga yetgay bu otashin muhabbat,
Sarkash ruhing ham topib osoyishtalik, rohat,
Ona yurt tuprog‘iga qo‘shilib xoking abad
Vatanda Vatan kabi yotguncha sevmoq kerak!

BEKOBODNING BARAKALI G‘ALABASI

21–22-avgust kunlari Toshkent viloyatining so‘lim Parkent tumanida “Uzum sayli – 2026” xalqaro festivali ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi. Ikki kun davom etgan mazkur bayram nafaqat uzumchilik va bog‘dorchilik sohasidagi yutuqlarni namoyish etish, balki milliy qadriyatlar, hunarmandchilik va xalq ijodini keng targ‘ib etishga xizmat qilgan yirik tadbirlardan biri bo‘ldi.

Festival davomida yurtimizning turli hududlaridan tashrif buyurgan ishtirokchilar tomonidan uzumchilik sohasida erishilgan natijalar, yetishtirilayotgan uzum navlarining xilma-xilligi hamda zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish tajribalari namoyish etildi. Eng sara uzumlar ko‘rgazmasi, milliy taomlar, hunarmandchilik buyumlari va ijodiy chiqishlar festivalga o‘zgacha fayz bag‘ishladi.

Tadbirning ikkinchi kunida hududlar o‘rtasida turli nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovlar yakunlari sarhisob qilinib, g‘olib va sovrindorlarni tantanali taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Quvonarlisi, unda Bekobod tumani tuman va shaharlar o‘rtasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, o‘zining munosib natijasini namoyon etdi. Bu yutuq tumanda qishloq xo‘jaligi, xususan, bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarning amaliy samarasidan dalolatdir.

Festival doirasidagi rang-barang konsert dasturlari, milliy an’analar va qadriyatlarimizni aks ettirgan chiqishlar, hunarmandlar ko‘rgazmalari hamda samimiy muloqotlar ishtirokchilarga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. Mehmondo‘stlik va milliy taomlar namoyishi esa tadbirning xalqona ruhini yanada kuchaytirdi.

“Uzum sayli – 2026” nafaqat uzum yetishtiruvchilarning mehnatini namoyish



etgan, balki hududlar o‘rtasidagi tajriba almashinuvi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini targ‘ib qilish va milliy qadriyatlarimizni keng ommalashtirish uchun muhim maydon bo‘ldi.

Bekobod tumanining ushbu nufuzli festivalda birinchi o‘rinni egallagani esa tuman ahli uchun yana bir quvonchli voqea bo‘lib, mohir dehqon va bog‘bonlarimizning zahmatli mehnati, tajribasi va salohiyati e’tirofining yorqin ifodasidir.

Bekobod tumani hokimligi
Axborot xizmati

YOSHLAR — KELAJAK BUNYODKORLARI



Yoshlar kuni munosabati bilan Bekobod tumani hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda IT Park Uzbekistan hamkorligida Toshkent viloyati yoshlari o‘rtasida Bekobod Yoshlar Innovatsion IT Markazida PUBG Mobile yo‘nalishi bo‘yicha kibersport musobaqasi tashkil etildi.

Bugungi kunda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning zamonaviy kasb va ko‘nikmalarni egallashiga ko‘maklashish, axborot texnologiyalariga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biridir. Shu ma’noda, kibersport musobaqalari yoshlarning raqamli dunyodagi bilim va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun o‘ziga xos maydon vazifasini o‘tamoqda.

Musobaqada 14–30 yoshdagi yoshlar ishtirok etib, tezkor fikrlash, strategik yondashuv, jamoaviy hamkorlik va raqamli ko‘nikmalarini namoyish etdilar. Bellashuvlar davomida ishtirokchilar o‘z mahoratlarini sinovdan o‘tkazib, g‘oliblik uchun bahslashdilar.

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar Bekobod tumani hokimi tomonidan esdalik sovg‘alari bilan munosib taqdirlandi. Bu esa yoshlarning intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni yangi marralar sari ruhlantirishga xizmat qildi.

Kibersport kabi zamonaviy yo‘nalishlarning ommalashib borayotgani yoshlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va yangi iqtidorlarni kashf etish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Bunday tadbirlarning muntazam tashkil etilishi esa yoshlarning zamonaviy texnologiyalar olamidagi salohiyatini yanada yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Akmal BOQIJONOV,
Bekobod tumani hokimi
maslahatchisi

Xushxabar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq, mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyat yuritayotgan bir guruh yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.



MUKOFOT MUBORAK!

Quvonarlisi, mukofotlanganlar safida Bekobod tumanidagi “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini hokim yordamchisi O‘ktam Mamatov ham bor.

U yurtimiz taraqqiyoti va mahallalar hayotidagi faol ishtiroki, o‘zining fidokorona mehnati bilan munosib e’tirof etilib, “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Ushbu yuksak mukofot O‘ktam Mamatovning mehnatiga berilgan munosib baho bo‘lib, kelgusidagi faoliyatida yanada katta marralar sari ruhlantirishi shubhasiz. Biz esa tumandoshimizni erishgan yutug‘i bilan tabriklab, oilaviy baxt va mehnat faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz.

TAHRIRIYAT

OGOHLIK VA E’TIBOR — XAVFSIZLIK GAROVI

Osoyishtalik yo‘lida

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Bekobod tumani IIB xodimlari ishtirokida ertalabki yo‘riqnoma o‘tkazildi. Unda bayram tadbirlari vaqtida jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolar osoyishtaligini asrash hamda turli ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbirda Bekobod tumani IIB Faxriylar kengashi raisi, Bekobod tumani “Nuroniylar” jamg‘armasi raisi J.Bo‘rixo‘jayev ishtirok etib, tuman hokimligi rahbariyati nomidan IIB xodimlarini O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik bayrami bilan samimiy muborakbod etdi.

Yo‘riqnoma davomida bayram tadbirlari o‘tkaziladigan joylarda xizmat faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, hushyorlikni yanada oshirish, mahallalarda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash yuzasidan tegishli tavsiya va topshiriqlar berildi.

Tadbirda Bekobod tumani IIB boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik F.Musayev, mayor A.Begmatov hamda soha xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirning yana bir muhim jihati — IIB tizimida ko‘p yillar davomida namunali xizmat qilgan iste’fodagi mayor A.Hasanov O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining



“Ichki ishlar organlari faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. Mukofotning tantanali ravishda topshirilishi faxriy xodimning ko‘p yillik samarali xizmatiga munosib ehtirom ifodasi bo‘ldi.

Bayram tadbirlari kunlarida jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolar osoyishtaligini asrash va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi. Yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi — barchamizning ezgu maqsadimiz.

Jalolxo‘ja BO‘RIXO‘JAYEV,
“Nuroniylar” jamg‘armasi raisi

Unutilmas manzillar

ORTDA QOLGAN TARIX SABOQLARI



Hozirgi Do‘stlik mahallasida yashagan, tuman qishloq xo‘jaligi rivojiga katta hissa qo‘shgan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi yuksak unvoni sohibi — Mamajon G‘ofurov.

(...boshlanishi oldingi sonda)

Tarix — raqamlar yoki sanalar yig‘indisi emas. U inson taqdiri, mehnat, jasorat va matonat haqidagi tirik xotiradir. Ana shu xotirani asrash va uni kelajak avlodga yetkazish esa bugungi kunning eng muhim ma’naviy vazifalaridan biridir.

Darvoqe, kolxoz davrida qishloq Kengashi (selsovet) hududdagi eng nufuzli boshqaruv organlaridan biri hisoblangan. Uning vakolatlari keng bo‘lib, kolxoz raisi, muassasa va tashkilot rahbarlari har yili 51 nafar deputatdan iborat qishloq Kengashi oldida hisobot berar edilar. Kengash huzurida obodonlashtirish, savdo va xizmat ko‘rsatish, aloqa, sog‘liqni saqlash, ta’lim, oila va nikoh, nuroniylar bilan ishlash kabi yo‘nalishlar bo‘yicha doimiy komissiyalar faoliyat yuritgan.

Turli yillarda Raimberdi Toshmurodov, Rahmat Barotov, Homid Qurbonov, Abdurasul Boboyev, Rahim Shukuraliyev, Rahmonqul Tojiqulov, Sultonboy Dehqonov, Saidvali Erkayev va G‘ofur Salimboyevlar qishloq fuqarolar yig‘iniga rahbarlik qilib, hudud taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdilar. 2017-yilda mahalla institutini yanada takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida qishloq fuqarolar yig‘inlari tugatilib, ularning vakolatlari mahallalarga o‘tkazildi.

Qishloq tarixida ijtimoiy sohalar taraqqiyoti ham alohida o‘rin tutadi. Tuman markaziy shifoxonasi 1973-yilgacha qishloq markazida faoliyat yuritgan. Keyinchalik u boshqa hududga ko‘chirildi. Uning binosida qishloq xo‘jaligi bilim yurti joylashdi. 2008-yilda mazkur ta’lim muassasasi O‘zbekiston mahallasida qurilgan zamonaviy binoga ko‘chdi. Keyinchalik kasb-hunar kollejlari tizimi tugatilishi munosabati bilan bu yerda 2019-yildan boshlab 585 o‘rinli 58-umumta’lim maktabi o‘z faoliyatini boshladi.

Qishloqdagi ta’lim tarixi ham boy. Markaziy hududdagi 1-umumta’lim maktabi 1961-yilda qurilgan bo‘lsa, xo‘jalikning uchinchi uchastkasida 1970-yilda 4-sonli maktab barpo etildi.

Keksa pedagog Is’hoq Yo‘ldoshevning eslashicha, bugungi 1-maktab o‘rnida ilgari pravoslav cherkovi joylashgan bo‘lib, o‘sha yillarda o‘quvchilarning asosiy qismini rus bolalari, pedagoglarning katta qismini esa turli millat vakillari tashkil etgan.

Istiqlol yillarida ta’lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tibor tufayli qishloq maktablari zamonaviy qiyofa kasb etdi. Yangi binolar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar va qulay shart-sharoitlar yoshlarning chuqur bilim olishiga keng imkoniyat yaratdi.

Buning samarasi sifatida qishloq maktablaridan ko‘plab yetuk insonlar yetishib chiqdi. Ular orasida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Abdunabi Haydarov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi Mamajon G‘ofurov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan paxtakor Rohila Qurbonova, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Bahodir Abduvaliyev, O‘zbekiston Jurnalistlar va Yozuvchilar uyushmalari a’zosi Sultonboy Dehqonov, yosh ijodkor Mirzabek Sherbekov kabi yurt faxrlari bor.

Ayni paytda 2014-yilda qurilgan 720 o‘rinli zamonaviy maktabda yuzlab o‘g‘il-qizlar ta’lim olmoqda. Turli yillarda I.Kovalchuk, Hamdam Umarov, Yo‘ldoshxon Toirov, Bahodir Abduvaliyev, Musaxon Zokirov, Bashorat Qushboqova, Raim Bekmurodov va bugungi kunda Umida O‘sarova rahbarligida ta’lim sifati yuksalishi yo‘lida samarali ishlar amalga oshirildi. Natijada qishlog‘imizda bilimli, tashabbuskor va zamonaviy fikrlaydigan yoshlar saflari yil sayin kengayib bormoqda.

Mahalla — xalqimiz ma’naviyatining tayanchi, milliy qadriyatlarimiz saqlanadigan, inson tarbiyasi shakllanadigan muqaddas maskandir. Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida ham mahallalarning o‘rni beqiyos. Bugun Do‘stlik, O‘zbekiston va O‘rikzor mahallalari aholi farovonligi, tinchlik va hamjihatlikni ta’minlash yo‘lida faol mehnat qilmoqda.

Keyingi yillarda qishlog‘imizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari ham alohida e’tirofga loyiq. Sirdaryo ustida qurilgan 200 metrlik zamonaviy ko‘prik nafaqat ikki sohilni, balki odamlar qalbini ham bog‘ladi. Bu inshoot aholining ko‘p yillik orzusi ro‘yobga chiqqanining yorqin ramziga aylandi.

Bir vaqtlar qarovsiz qolgan Sirdaryo sohillari bugun yana obod qiyofa kasb etmoqda. Yangi bog‘lar, yo‘llar va infratuzilma obyektlari qishloq hayotiga yangi nafas bag‘ishladi. Bu o‘zgarishlardan mahalliy aholi cheksiz mamnun. Shoir aytganidek, “bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”.

Yangi Bekobodning obod qishloqlari safida Sretenko ham o‘zining yangilangan qiyofasi bilan munosib o‘rin egallamoqda. Bularning barchasi mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining yorqin sahifalaridir.

Ushbu tarixiy xotiralarni qalamga olishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — yosh avlodni o‘z ildizlarini anglashga, Vatan tarixini bilishga chorlashdir. Chunki insonning o‘zligini anglashi, eng avvalo, uning tarixi bilan boshlanadi. Yillar o‘tar, avlodlar almashar, ammo qishlog‘imizning kechmish sahifalari, fidoyi insonlari va ezgu an’analari xalq xotirasida abadiy yashayveradi.

Ortda qolgan tarix — bu kechagi kun emas, kelajak uchun ibrat maktabidir.

Sultonboy DEHQONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

OILADAGI TINCHLIK — JAMIYAT BARQARORLIGINING ASOSI



Oilaviy zo‘ravonlik insonning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi salbiy ijtimoiy hodisadir. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda bunday huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Oilaviy zo‘ravonlik jismoniy, ruhiy, iqtisodiy yoki jinsiy tazyiq shakllarida namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday harakatlar shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzib, qonunchilikda belgilangan hollarda ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ma’muriy huquqbuzarliklar ko‘pincha zo‘ravonlikning dastlabki bosqichida yuzaga keladi. Ularni o‘z vaqtida aniqlash va qonuniy choralar ko‘rish kelgusida yanada og‘ir oqibatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy zo‘ravonlikning kelib chiqishiga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin. Jumladan, oiladagi nizolar va kelishmovchiliklar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ishsizlik, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste’mol qilish, huquqiy madaniyatning pastligi, ruhiy-psixologik muammolar hamda gender tengligi tamoyillariga rioya qilmaslik shular jumlasidandir. Mazkur omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi.

Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, avvalo, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdan boshlanadi. Fuqarolar oiladagi zo‘ravonlikning huquqiy oqibatlari, jabrlanuvchilarning huquqlari va mavjud himoya mexanizmlari haqida muntazam xabardor qilinishi lozim.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari, xotin-qizlar faollari, ijtimoiy xodimlar va psixologlarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish muhimdir.

Jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda himoya orderi institutidan samarali foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nizoli oilalarni erta aniqlash, ular bilan individual profilaktik suhbatlar o‘tkazish, zarur hollarda ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish zo‘ravonliklar takrorlanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda o‘zaro hurmat, mas’uliyat va bag‘rikenglik tuyg‘ularini shakllantirish ham oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishning muhim omillaridan biridir.

Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari, sudlar, prokuratura, sog‘liqni saqlash muassasalari, ta’lim tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu tuzilmalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, jabrlanuvchilarni himoya qilish va profilaktik choralarni kuchaytirish imkonini beradi.

Zero, oilada tinchlik va totuvlikni ta’minlash nafaqat bir oilaning, balki butun jamiyatning farovonligi va barqarorligi uchun muhimdir.

Rustam KORABOYEV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Shirin shahar sudining tergov sudyasi

Qonun ustuvorligi

NOGIRONLIGI BO‘LGAN ABITURIYENTLARGA IMTIYOZ



2027/2028-o‘quv yilidan boshlab nogironligi bo‘lgan abituriyentlar uchun oliy ta’lim tashkilotlariga kirish imtihonlarida belgilangan vaqt me’yorining 50 foizi miqdorida qo‘shimcha vaqt beriladi.

Qarorga ko‘ra, shuningdek, nogironligi bo‘lgan pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish hamda umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy sertifikat olish bo‘yicha imtihonlarda ham qo‘shimcha vaqt ajratiladi.

Imtihon jarayonlarida ishtirok etuvchi abituriyentlar uchun Brayl alifbosidagi, audio va elektron formatdagi imtihon materiallaridan foydalanish imkoniyati ham yaratiladi. Bu esa alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan fuqarolarning bilim va salohiyatini namoyon etishi uchun yanada qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Qarorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni zamonaviy assistiv (yordamchi) jihozlar bilan ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilgan. 2027-yil 1-maydan bunday bolalarning vaucher asosida ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy assistiv jihozlar bilan ta’minlash tizimi joriy etiladi.

Shuningdek, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish bolaning individual ta’lim ehtiyojlari, funksional imkoniyatlari hamda o‘zlashtirish darajasiga mos ravishda ishlab chiqiladigan individual ta’lim rejalari asosida tashkil etiladi.

Nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida nodavlat ta’lim tashkilotlariga ham qo‘llab-quvvatlash choralari belgilangan. 2026-yil 1-sentyabrdan korreksion sinf tashkil etgan holda umumiy o‘rta ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi nodavlat ta’lim tashkilotlariga ushbu sinfda ta’lim olayotgan har bir o‘quvchi uchun subsidiya ajratiladi.

Subsidiya miqdori hududlarga qarab quyidagicha belgilanadi:

- Toshkent shahrida — BHMning 11 baravari;
- viloyatlar markazlari va Nukus shahrida — BHMning 9,5 baravari;
- boshqa tuman va shaharlarda — BHMning 8,5 baravari.

Mazkur chora-tadbirlar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va nogironligi bo‘lgan fuqarolarning ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ular uchun teng sharoit yaratish hamda ta’lim jarayonida qo‘shimcha ko‘mak ko‘rsatishga qaratilgan.

Nasiba SHAMIRZAYEVA,
Bekobod tuman FHDY bo‘limi
2-toifali inspektori

BEKOBOD — SHOIRLAR QALBIDA,



***

Yangi Bekobodning chorlar maydoni,
Nur bilan to‘lgandir peshtoq, ayvoni,
Lol etmish ushbu dam ahli dunyoni,
Yuz yoshing muborak azim Bekobod,
Men tuzdim bir kichik nazm, Bekobod.

Asrni qaritgan navqiron diyor,
Naqadar tiniqsan, yo‘q senda g‘ubor,
Sengadir dil so‘zim, sengadir alyor,
Yuz yoshing muborak azim Bekobod,
Sen bilan yorug‘dir yuzim, Bekobod.

Tunda yorishadi oy-u yulduzlar,
Favvora rangidan qamashar ko‘zlar,
Har biri muhabbat, mehrdan so‘zlar,
Yuz yoshing muborak azim Bekobod,
O‘z yerin sevmoqlik rasm Bekobod.

Maydonda tinglangiz vafo vasfini,
Jasorat, shijoat, do‘stlik azmini,
Xotira uyg‘otar ko‘ngil nazmini,
Yuz yoshing muborak azim Bekobod,
Qo‘limda qalamim – sozim Bekobod.

Ozod yurt madhidir, mehrimiz o‘shal,
Naqadar obodsan, naqadar go‘zal,
Arziydi baxsh etsam ming bitta g‘azal,
Yuz yoshing muborak azim Bekobod,
Maqtasam maqtashga arzir Bekobod.

Yurtboshim mehriga sazovor yurtsan,
Shamolga ko‘ksini tutgan bir o‘tsan,
Baxtliman, elim deb men kuylab o‘tsam,
Yuz yoshing muborak azim Bekobod,
Qo‘lim ko‘ksimdadir, ta’zim, Bekobod!

Ashurali BOYMUROD

***

Ona shahrim tenging yo‘q, timsolinga Bekobod,
Ahli olam havasda, iqbolinga Bekobod,
Quvnab kelishar do‘stlar, visolinga Bekobod,
Ko‘z tegmasin ilohim, kamolinga Bekobod.

O‘zbekiston ahliga, tarqaldi ajab mish-mish,
Sarbonimiz tarixiy, boshlabli katta bir ish,
Bekobodga guvillab, poyezdlar kelar emish,
Kelmagan ishlar bo‘ldi, xayolinga Bekobod,
Ko‘z tegmasin ilohim, kamolinga Bekobod.

Baxt ko‘prigini qurding, dillar dilga bog‘landi,
Ezgulikka el-u xalq, belni bog‘lab chog‘landi,
Do‘stlarni sevintirding, dushman ko‘ngli dog‘landi,
Dangasalar qolishdi, uvolinga Bekobod,
Ko‘z tegmasin ilohim, kamolinga Bekobod.

Kimlar bog‘ qilib ketdi, kimlar kelib buzdirdi,
Savob ishni kimlardir, besh-o‘n yilga cho‘zdirdi,
Mehnatkash xalqni avrab, borini ham to‘zdirdi,
Uchib ketdilar bugun, shamolinga Bekobod,
Ko‘z tegmasin ilohim, kamolinga Bekobod.

Kelinchakday bezangan, har ko‘chang suluv, obod,
Yayrashadi bag‘ringda, yetim-yesir bo‘lib shod,
Omad tilaydi Mahkam, Muhiddin bo‘lib Dilshod,
O‘g‘ling bo‘lib yarashsam, yuz-xolinga Bekobod,
Ko‘z tegmasin ilohim, kamolinga Bekobod.

Muhiddin MAHKAM



***

Yaratgan ulug‘ rizq bergan makonim,
Yurtboshimning mehri tushgan bo‘stonim,
Jannatdan andoza bir gulistonim,
Har tongi – yangi tong, yangicha hayot,
Yangi O‘zbekiston – Yangi Bekobod!

Dalvarzin cho‘llari guliston bo‘ldi,
Ko‘hna qishloqlarim shahriston bo‘ldi,
Yurtim oftobiston, baxtiston bo‘ldi,
Baxtidan bulbullar kuylaydi bayot,
Yangi O‘zbekiston – Yangi Bekobod!

Bekobod shamoli – yurtim shamoli,
Jahonga taralgan shoni, kamoli,
Vatanga zeb bo‘ldi ko‘rki, jamoli,
Tumanim, mahallam, ko‘ngillar obod,
Yangi O‘zbekiston – Yangi Bekobod!

Yurtboshim rahnamo – qalqib daf’atan,
Yagona xalq bo‘ldik, yagona Vatan,
Yangi hayot sari biz dadil qadam
Tashladik – qalblarda ishonch va sabot,
Yangi O‘zbekiston – Yangi Bekobod!

Nurali JALIL

***

Qadim zamonlardan kelar sadoing,
Tarixlar bag‘rida porlaydi noming.
Bobolar izidan nur sochib azal,
Ko‘klarga yarashar sening parvozing.

Dalvarzin cho‘lidan esar shamoling,
Sahro bag‘rida ham yashnar kamoling.
Mehnatkash el bilan obod har manzil,
Tuproqdan yaralgan buyuk iqboling.

Har ishda erkinlik, kenglik nafasi,
Buzilgay bulbulning oltin qafasi.
Sahrodan bog‘larga aylangan diyor,
Aytsak tarifingni yo‘q nihoyasi.

Bu yurtning beklarin qomadlari tik,
Sen bilan kelajak rejasin tuzdik.
Sirdaryo ustidan qad rostlab orzu,
“Do‘stlik” deb ataldi muhtasham ko‘prik.

Koinotdan ko‘rinur rang-u, tasviri,
Bunday aziz yurtning Haq musavviri.
Ko‘rkingga ko‘rk qo‘shar yanada sening
Go‘zal Yangi O‘zbekiston massivi.

Bugun yangi nafas, yangi bir zamon,
Yangicha qiyofa, yangi bir makon.
Bobolardan meros oltin tuprog‘i,
Azizdir bizlarga har gardi hamon.

Bekobod, Bekobod — obod diyorim,
Sen bilan faxr etar bu yurt, bu borim!
Tarixing — sharafim, kelajak — orim,
Yashna, ey Bekobod — mangu bahorim!

Mirzabek SHERBEKOV

SHE’RLAR SATRIDA, XALQ MEHRIDA



***

Tegrangda tog‘laring mag‘rur boqadi,
Ko‘hna Sir mavjlanib to‘lib oqadi,
Hattoki shamoling bizga yoqadi,
O‘rgilay, Bekobod, bo‘yingdan sening,
Istiqlol atalmish kuyingdan sening.

Ko‘prikdan boshlangan ulug‘vor yumush,
Markaziy Maydonga, do‘stim, bir bor tush,
Ulkan o‘zgarishdan ko‘ngil bo‘lar xush,
Bari Yurtboshimning himmati bo‘lar,
Elim barchasi-chun duolar qilar.

Mahallalar bugun shukrona aytar,
Ular obodligi dilni yayratar,
“Yettilik” ishingiz, albat, hal etar,
Vatan ichidagi vatan – mahalla,
Ne bo‘lsa bir jon-u, bir tan mahalla.

Istiqlol o‘ttiz besh, Bekobod yuz yosh,
Ikkisining to‘yi bir-biriga esh,
Doim osmonida porlasin quyosh,
Istiqlol muborak hur Bekobodim,
Vatan bisotida dur Bekobodim.

Bekobod dehqonin dovrug‘i baland,
G‘allakor, tadbirkor berishmaydi pand,
Halollikdan topar ular daromad,
O, lafzi halolim, Bekobod elim,
Noming tilga olsam yayrar jon dilim.

“Yangi Bekobod”im bo‘y cho‘zar tezda,
Poyezdlar ham yelar kecha-kunduzda,
Sen ham do‘stim, vatan haqqini uzda,
Bekobod jon qadar suyugim mening,
O‘zbekiston ichra buyugim mening!

O‘zgarishlar katta, yutuqlar katta,
Hali olinajak marralar katta,
Azmi-shijoat bor elda, albatta,
Hali biz ko‘plardan o‘tamiz, elim,
Farovon kunlarga yetamiz elim.

Osmonida yangrar kuy-qo‘shiq, alyor,
Bugun, ertasidan eli baxtiyor,
Alloh yarlaqagan bu shunday diyor,
Istiqlol muborak hur Bekobodim,
Vatan bisotida dur Bekobodim!

Abduvoit SHERMANOV

***

Ko‘hna Sirdaryo suv ichgan makon,
Qoshingda uyg‘onar eng go‘zal ertak.
Har bitta qadaming topar e’tibor,
Poyingga yoyilar pok ezgu tilak.


Nahrning oblari oqar jo‘sh urib,*
Qishloqlar bag‘riga baxsh etar hayot.
Xalqingning toblangan ruhini ko‘rib,
Eng ezgu niyatlar qoqadi qanot!

Asrlar qa’ridan kelgan sadosan,
Bobolar ruhidan kuch olgan diyor.
Muqaddas zaminga jon-u fidosan,
Bag‘ringda yashaydi g‘urur, iftixor!

Bekobod tumanim — suyangan tog‘im,
Quyosh nur sochmoqda istiqbolingga.
Gullagan chamanim, mevali bog‘im,
Jon nisor etayin hur iqbolingga!

***Nahrning oblari - daryo suvlari**

Munira SULTON



***

Bobur Mirzo yurgan, ko‘rgan tuprog‘in,
Beklar kelib gullatdi Sir qirg‘og‘in,
Dong‘i chiqdi yurtda Dalvarzin bog‘in,
Ona yurtim Bekobodim, Bekobod!

Sement, ma’dan korxonalar qo‘sh bo‘ldi,
Yozin-qishin, kecha-kunduz ish bo‘ldi,
Bekobodning ishi shundan besh bo‘ldi,
Ona yurtim Bekobodim, Bekobod!

Zafar shahrim – cho‘lquvarlik samari,
Belda mahkam bunyodkorlik kamari,
Taralmoqda yuz yillikning xabari,
Ona yurtim Bekobodim, Bekobod!

Qayta tiklab tumanimiz shonini,
Yurtboshimiz qutlar zafar onini!
Halollab yer elim mehnat nonini,
Ona yurtim Bekobodim, Bekobod!

Hali Zafar go‘zal shahar bo‘ladi,
Haqiqiy Bek shahrini el ko‘radi,
Yurtboshimiz ko‘chamizda yuradi,
Ona yurtim Bekobodim, Bekobod.

Anorqul RUSTAMOV



***

Istiqlolla baland bo‘ldi ovozing,
Yuz yoshingga yarashmoqda parvozing,
Viloyatda tosh bosmoqda tarozing,
Bekobodsan, Bekobodim, Bekobod.

Sirdaryoga sirg‘a bo‘ldi zo‘r ko‘prik,
Ikki qirg‘oq ahli hamroh, ham sherik,
Sir havzasi, ravzasida nok o‘rik,
Ona yurtim, Bekobodsan, Bekobod.


Ish boshingda reja puxta bo‘ladi,
Puxta reja samarasin beradi,
Har bir ishdan elning ko‘ngli to‘ladi,
Shundan obod, Bekobodsan, Bekobod.

***Ravza – bog‘**

Baxtiyor ABDURAHMONOV

Kitob taqdimoti

TARIX, BUGUN VA KELAJAK UYG‘UNLIGI



Bekobod tumanining 100 yillik yubileyiga bag‘ishlangan kitob nashr etildi.

Qadim tarix va boy madaniy merosga ega bo‘lgan, bugun esa zamonaviy bunyodkorlik markaziga aylangan Bekobod zamini o‘zining serqirra tarixi, boy ma’naviy merosi va metinday irodali insonlari bilan alohida e’tirofga loyiq. “Ko‘hna zamindagi Yangi Bekobod” kitobi aynan shu zaminning kechmishi, bugungi taraqqiyoti va ertangi istiqbollarini yaxlit, salmoqli manzara sifatida gavdalantiruvchi o‘ziga xos ma’rifiy-ma’naviy asardir.

Asarni varaqlar ekansiz, shunchaki xronologik ma’lumotlar bilan emas, balki el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi, zamondoshlarimizning matonati, fidoyiligi va Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbati bilan yuzma-yuz kelasiz. Unda tarix va bugun, inson va zamin, xotira va kelajak tushunchalari o‘zaro uyg‘un holda yoritilgan.

Kitobda qadimgi davrlardan bugungi kungacha bosib o‘tilgan murakkab, ayni paytda sharafli yo‘l tarixiy haqiqatlar va xalq xotirasi asosida jonlantiriladi. Unda “Oq tom” bilan bog‘liq afsonalardan tortib, o‘tgan asrning suronli yillari va bugungi taraqqiyotga tutashgan muhim bosqichlargacha izchil va teran yoritilgan.

Asarning eng ta’sirchan jihatlaridan biri — unda inson omiliga yuksak e’tibor qaratilganidir. Hudud taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, el ardog‘iga sazovor bo‘lgan fidoyi insonlar, olim va professorlar, yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo‘lida mehnat qilgan zahmatkashlarning hayoti va faoliyati, shuningdek, tabarruk ziyoratgohlar alohida mehr va ehtirom bilan qalamga olingan.

So‘nggi yillarda tumanda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo‘shayotgan shijoatli yoshlar, ma’naviy-ma’rifiy yangilanishlar hamda Bekobodning o‘ziga xos adabiy muhiti asarda yangicha nigoh va yuksak ruh bilan yoritilgan. Bu sahifalarda yaratuvchanlik nafasi, ertangi kunga bo‘lgan ishonch va Vatan ravnaqiga daxldorlik tuyg‘usi yaqqol namoyon bo‘ladi.

El suygan taniqli adiblarning ushbu tabarruk maskan, uning mehmondo‘st va bag‘rikeng xalqi haqidagi samimiy bitiklari, dil so‘zlari kitobga alohida badiiy latofat va hissiy ta’sirchanlik bag‘ishlagan. Bu fikrlar Bekobodning nafaqat tarixiy va iqtisodiy, balki ma’naviy-adabiy hayotdagi o‘rnini ham yanada yorqin namoyon etadi.

“Ko‘hna zamindagi Yangi Bekobod” — shunchaki o‘tmish va bugun haqidagi xronika emas. U ajdodlar merosiga ehtirom, bugungi bunyodkorlik va taraqqiyotga munosib baho, ertangi avlodlarga qoldiriladigan boy ma’naviy xazinadir. Mazkur asar o‘zligini anglashni, tug‘ilib-o‘sgan zamin tarixini chuqurroq bilishni, ajdodlar merosini qadrlashni va bugungi bunyodkorlik jarayonlarini teran his etishni istagan har bir kitobxon uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

TAHRIRIYAT

Diqqat e’lon!

O‘TMISHIMIZNI BIRGA TIKLAYMIZ

Barcha tumandoshlarimiz, xususan, faxriy fuqarolar, nuroniylar, ziyolilar va mahalla faollari diqqatiga!

Tumanimiz tarixini aks ettiruvchi qimmatli ma’lumotlar va ashyolarni jamlash, ajdodlarimizdan qolgan boy merosni kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida Tuman tarixi muzeyi tashkil etilmoqda.

Shu munosabat bilan xonadonlar va oilaviy arxivlarda saqlanayotgan tuman tarixiga oid hujjatlar, fotosuratlar, qadimiy kiyim-kechaklar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollari, turli ashyolar, shuningdek, 40, 50, 70 yil avval gazetalarda chop etilgan maqola va materiallar muzey ekspozitsiyasini boyitish uchun yig‘ilmoqda.

Aziz tumandoshlar! Sizning xonadoningizda saqlanayotgan har bir eski surat, hujjat, buyum yoki gazeta maqolasi tumanimiz tarixining muhim bir sahifasi bo‘lishi mumkin. Shu bois, Tuman tarixi muzeyini tashkil etish va uning fondini boyitishga o‘z hissangizni qo‘shishingizni so‘raymiz.

Murojaat uchun telefonlar:

+99894 351-55-57
+99899 493-78-78

Bekobod tumani hokimligi



Raqamli xavfsizlik

KIBERFIRIBGARLIK: TEXNOLOGIYA RIVOJLANGANI SARI XAVF HAM O‘ZGARMOQDA

Bugun texnologiya inson hayotining deyarli barcha jabhalariga kirib bordi. Bank xizmatlaridan foydalanish, xarid qilish, pul o‘tkazish, hujjatlarni rasmiylashtirish va muloqot qilish bir necha soniyada amalga oshirilmoqda. Biroq qulayliklar ortgani sari yangi xavflar ham paydo bo‘lmoqda. Shulardan biri — kiberfiribgarlik.

Kecha oddiy telefon qo‘ng‘irog‘i yoki soxta xabar orqali amalga oshirilgan firibgarlik bugun zararli APK-fayllari, qalbaki havolalar, soxta bank ilovalari va hatto sun’iy intellekt yordamida yaratilgan ovoz hamda tasvirlargacha yetib bordi.

Eng xavflisi, kiberfiribgarlar nafaqat zamonaviy texnologiyalardan, balki insonning ishonuvchanligi va beparvoligidan ham foydalanmoqda. Birgina noto‘g‘ri havolani bosish, noma’lum ilovani o‘rnatish yoki begona shaxsga tasdiqlash kodini aytish moliyaviy zarar bilan yakunlanishi mumkin. Shu sababli bugungi raqamli dunyoda kiberxavfsizlik nafaqat IT-mutaxassislarining, balki har bir internet foydalanuvchisining muhim masalasiga aylanmoqda.

Raqamli hayotimizdagi eng xavfli jihatlardan biri shundaki, firibgarlik endi ko‘pincha shubhali ko‘rinishda kelmaydi. Aksincha, u ishonchli xabar, tanish kompaniya nomi yoki kundalik foydalanadigan xizmat ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Masalan, foydalanuvchiga bank ilovasini yangilash, jarimani tekshirish yoki muayyan xizmatdan foydalanish bahonasida APK-fayli yuboriladi. Oddiy foydalanuvchi esa uni haqiqiy ilova deb o‘ylab, telefonga o‘rnatishi mumkin. Aslida esa noma’lum manbadan yuklangan bunday dastur qurilmadagi ma’lumotlar xavfsizligiga jiddiy tahdid tug‘dirishi ehtimoli bor.

Kiberfiribgarlikning yana bir keng tarqalgan usuli — fishing (phishing), ya’ni soxta havolalar orqali shaxsiy ma’lumotlarni qo‘lga kiritishdir. Firibgarlar bank, davlat tashkiloti yoki mashhur kompaniya nomidan xabar yuborib, odamni shoshilinch harakat qilishga undaydi.

“Hisobingiz bloklanadi”, “To‘lovni tasdiqlang” yoki “Sovrinni olish uchun havolaga kiring” kabi jumlalar insonni vaziyatni xotirjam tahlil qilib ko‘rishga vaqt qoldirmaslikka xizmat qiladi. Havola tashqi ko‘rinishidan haqiqiy saytga juda o‘xshashi mumkin. Foydalanuvchi karta ma’lumotlarini kiritganida esa, aslida ularni firibgarga taqdim etgan bo‘ladi.

Muammo faqat internetdagi havolalar bilan tugamaydi. Telefon qo‘ng‘iroqlari orqali amalga oshiriladigan firibgarliklar hamon jiddiy xavf bo‘lib qolmoqda.

O‘zini bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxs “Kartangizdan shubhali operatsiya amalga oshirildi”, deya odamni qo‘rqitishi, keyin esa muammoni bartaraf etish bahonasida SMS orqali kelgan tasdiqlash kodini so‘rashi mumkin. Inson vahima yoki shoshilish sababli bu ma’lumotni aytib qo‘yishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun telefon orqali bildirilgan har qanday shoshilinch talabga ehtiyotkorlik bilan yondashish, ma’lumotni mustaqil ravishda tekshirish muhim.

Bugun sun’iy intellekt yordamida ovoz va tasvirlarni taqlid qilish imkoniyatlari mavjud. Bu esa firibgarlar uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Masalan, tanish insonning ovoziga o‘xshash ovozdan foydalanib, “Tezda pul kerak” mazmunidagi murojaat yuborilishi mumkin. Bunday vaziyatda odam faqat eshitgan ovoziga ishonib qolmasdan, murojaat qilayotgan shaxsni boshqa aloqa kanali orqali ham tekshirishi zarur.

Texnologiyani to‘xtatib bo‘lmaydi va bunga ehtiyoj ham yo‘q. Aksincha, undan oqilona foydalanish, uning imkoniyatlari bilan bir qatorda xavflarini ham anglash zarur. Bugungi kunda raqamli savodxonlik oddiy ko‘nikma emas, balki shaxsiy va moliyaviy xavfsizlikning muhim qismiga aylanmoqda. Texnologiya bizga qanchalik katta qulaylik bersa, undan foydalanishda shunchalik katta mas’uliyat ham talab etiladi.

Muazzam JUMABOYEVA

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

ISSN 2091-5497